



“MALIKAYI DILOROM” DOSTONINING BADIY XUSUSIYATLARI

Odilova Xolidaxon Muzaffar qizi

Farg‘ona viloyati Oltiariq tumani

Ideal school xususiy maktabi o‘qituvchisi

odilovaxolidaxon28gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17053287>

Annotatsiya

Mazkur tezisda Saodat Mushtariy qalamiga mansub “Malikayi Dilorom” dostonining badiiy jihatdan tahlili o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: Qo‘lyozma, badiiy san‘atlar, “Malikayi Dilorom” dostoni.

“Malikayi Dilorom” dostonining ikkita qo‘lyozma, o‘nta toshbosma nusxasi mavjud. Dostonning umumiy mazmuniga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, bu asarda yozma adabiyot bilan xalq og‘zaki ijodi an‘analari uyg‘unlashib ketadi. Shunga ko‘ra, u ham mazmun, ham shakl jihatidan o‘ziga xos bir ko‘rinishni kasb etadi. “Malikayi Dilorom” dostoni hajm jihatidan uncha katta emas. Shunga qaramay, unda hikoya qilingan voqealar sertarmoq, konfliktlar ko‘p, xarakterlar, personajlar rang-barang qiyofalarga egadir. Shoirira bevosita o‘z dostoniga zamin bo‘lgan manba haqida aniq ma‘lumot qoldirmagan. Shunga qaramay, biz shoiraning “Malikayi Dilorom” asariga yaqin “Orzigul” dostoni kabi xalq og‘zaki ijodi namunalari bilan ham tanishligi haqida to‘la asos bilan gapira olamiz.

“Malikayi Dilorom” dostonidagi ayrim diniy mayllarga qaramay, u o‘z g‘oya va obrazlari bilan dunyoviy mavzularga asoslanganligidan darak beradi. Bu o‘z davri hayotining baland-pasti, achchiq-chuchuklarini boshidan kechirgan shoiraning uzoq kuzatishlari, ijodiy izlanishlari natijasida maydonga kelgan original asardir. Dostonda ayol kishining nihoyatda og‘ir qismati, ana shu og‘ir qismat bilan hamisha murosasiz kurashlarda goh yengib, goh yengilib kelgan shaxsning tarixini ko‘rishimiz mumkin.

O‘z ijobiy qahramoni Diloromning uzoq va chigal hayot yo‘lini butun ziddiyatlari bilan tasvirlashga harakat qilgan. Bag‘dod shahrida bir g‘ayridin podshoh bo‘ladi. Dilorom shu podshohning sohibjamol qizi edi. U o‘z mazhabidan kechgan, “musulmonlikka imon keltirgan” ayol sifatida taniladi. Kunlardan birida ota o‘zining balog‘atga yetgan, nihoyatda go‘zal qizini sevib qoladi. Unga uylanish rejalarini tuzadi. Shoh bu harakatlarining g‘ayriinsoniyligini yaxshi biladi. Shuning uchun ham u qiziga qarata “agar taklifimni qabul qilmasa, yuz pora qilurman”,- deb ont ham ichadi. Asarda keyingi voqealarning rivojlanishi ko‘p jihatdan ana shu ota bilan qiz o‘rtasidagi kuchli ziddiyatlar, kurashlar jarayonida kechadi.





ITALY

SCIENCE AND INNOVATION IN THE EDUCATION SYSTEM

International scientific-online conference



ITALY

Shoh o'z qizining ketma-ket rad javoblariga qaramay g'ayriinsoniy niyatidan qaytmaydi. Diloromni tavba ettirish va o'z yo'liga yurgizish maqsadida dorga ostiradi, tandirda yonib turgan o'tga tashlatadi, toshbo'ron qildiradi, qafasda jabrlaydi, qo'l-oyog'ini bog'lab vahshiy hayvonlar oldiga tashlaydi. Ko'p jihatdan Navoiyning "Sab'ai sayyor" dostonidagi Dilorom taqdirini eslatuvchi bu epizodlarda Saodat Mushtariyning folklordagi "Orzigul" dostoni motivlari asosida yuksak imon, mustahkam iroda egasi bo'lgan o'z qahramonining ma'naviy jihatdan benihoya yuksakligini romantik bo'yoqlar orqali tasvirlashga erishganligini ko'rishimiz mumkin.

Shunday qilib, o'quvchi ko'z o'ngida bir tomonda mushtipar, achchiq taqdir qarshisida ojiz, ikkinchi tomondan, o'zining shaxsiy erki, insoniyligi yo'lidagi shiddatli kurashlarga bel bog'lagan isyonkor ayol obrazi namoyon bo'ladi.

Shoira Diloromning otasi bilan bo'lgan dastlabki to'qnashuvlarida ko'proq ojiz holatdagi ayol portretini gavdalantirsa, keyinchalik voqealar davomida uning hayotga nisbatan ko'zi ochilib, jaholat, shafqatsizlikka nisbatan g'azabi kuchayib borganligini aks ettiradi. Otaning beburt, yo'l yo'qotgan "muhabbati"ga nisbatan "qiz otaga hargiz ravo bo'lurmi", deb javob qiladi Dilorom. U otasining yuziga qarashga ham jirkanadi. Uning takliflariga nisbatan "qafas aro tushsam- tusharman", "lekin qabul qilmasman", -deb javob qiladi.

Dilorom uchun har bir to'qnashuv, har bir ziddiyat hayot sabog'i bo'ladi. U otasi tomonidan tandirga tashlanar ekan: nima bo'lgan taqdirda ham otasining taklifiga rozi bo'lmasligini mag'rur turib aytadi.

Dostonda Diloromning yuksak insoniyligini, boy ruhiy olamini namoyish qiluvchi voqealar tizmasi shoira tomonidan alohida mahorat bilan qalamga olinadi. Saodat o'z qahramonining chuqur psixologik kechinmalarini tasvirlashda monologlardan ustalik bilan foydalangan. Murabba', g'azal, muxammas yo'li bilan bitilgan she'rlar o'quvchi ko'z o'ngida qahramonning fojiali damlarini rang -barang obrazlar orqali ifodalab beradi. Og'ir vaziyatda qolgan Dilorom yerga kurgudek iztirob chekadi, o'limiga rozi bo'ladi.

Dostonda obrazlar o'rtasidagi to'qnashuvlar jarayonida otaning tuban ketishi shoira tomonidan asoslab boriladi. Diloromning qo'l- oyoqlariga nashtar urib, dasht-biyobonga tashlanishi otaning o'z qiziga ko'rsatgan eng katta "mukofoti" edi. Shoira ana shu voqealarni tasvirlar ekan, hikoyaga joziba baxsh etish maqsadida tarixda bo'lib o'tgan voqealarga murojaat qiladi. Dashtda qo'l - oyoqlari bog'lanib, hushsiz bo'lib yotgan malikaga u yerda o'tin terib yurgan bir keksa chol najot qo'lini cho'zadi. Shoira bu o'rinda o'z qo'l kuchi bilan hayot kechirib, o'zi kabi "g'arib-g'urabolar"ga hamisha mahram bo'lib kelgan bobo



ITALY

SCIENCE AND INNOVATION IN THE EDUCATION SYSTEM

International scientific-online conference



ITALY

obrazini katta muhabbat bilan chizadi. O'tinchi bobo hushsiz yotgan malikaning og'ziga sehrli sharbat tomizib uni o'ziga keltiradi. Malika bu mehribon keksaga o'z sarguzashtlarini birma-bir bayon etadi Shoiri Diloromning ana shu chol bobo bilan bo'lgan suhbatida o'linga mahkum qilingan, toshbo'ron etilgan, tuhmat bilan qoralangan qahramonni Mansur va Nasimiya o'xshatganligining guvohi bo'lamiz.

XII asrda Halaf shahrida tuhmat bilan dorga osilgan Mansur voqeasining eslanishi ayni vaqtda, juda o'rinli chiqqan. Dostonda ulug' Ozarbayjon shoiri Nasimiy (XIV asr) bilan bog'liq tarixiy voqealardan ham juda yaxshi foydalangan. Ma'lumki, xurufiylik yo'liga sodiq bo'lgan yirik iste'dod egasi Nasimiyni unga qarshi turgan kuchlar tomonidan terisi shilingan edi. "Malikayi Dilorom" dostonida otasi tomonidan qo'l oyog'i kesilib dashtga tashlangan Diloromning fojiasini tasvirlashda Nasimiy bilan bog'liq ana shu tarix esga olinadi. Dilorom hayotda faqat o'zi uchun emas, o'ziga o'xshagan insonlik nomini muqaddas saqlab, shaxs erkini e'zozlaydigan jami insonlar uchun ham yashaydi. U odamning odam tomonidan xo'rlanishiga betaraf qarab ketolmaydi. Shu o'rinda xudbin ota bilan pokiza qiz o'rtasidagi ziddiyatlar eng yuqori nuqtaga ko'tariladi. O'tinchi choling xotini va o'g'li tomonidan haqorat qilingan Dilorom qochib yana yo'lda davom qilar ekan, bu yerda ko'pchilik tomonidan katta qarz evaziga dorga osib kaltaklanayotgan qassobga duch keladi. Dilorom qassobni nohaq jazolanayotgan kishi sifatida tushunib, unga yordamga shoshiladi. O'zining eng so'nggi boyligini berib insonni himoya qilgan Dilorom obrazi bu o'rinda yanada ravshanlashadi. O'z qulog'idagi sirg'alarini hadya qilish bilan marhamat ko'rsatgan ayol obrazini Nizomiyning "Xusrav va Shirin" dostonida Shirin timsolida ham ko'ramiz. Dilorom keyincha sayyod tomonidan bolalari so'yilgan ohuga, qanotlari bog'langan kabutarga ham xuddi shunday yaxshilik qiladi. Natijada, Majnunga o'xshab parranda va darrandalar Diloromning doimiy hamrohiga aylanib qoladilar. Bu bilan shoiri, o'z qiziga nisbatan xiyonat yo'liga kirgan shoh va uning atrofidagi odamlardan hayvon afzal degan fikrni ilgari suradi. Qadimgi afsona va dostonlarimizda kuylanib kelingan bir motiv – insonning jabrlangan parranda va hayvonlarga g'amxo'rliqi sayyodlardan ularni xunini so'rab olish epizodi Saodat Mushtariy asarida ham uchraydi. Sharq adabiyotida ko'proq Majnun nomi bilan bog'langan asarlarda takrorlanib kelingan bu an'anadan Saodat Mushtariy o'rinli foydalangan.

Saodat Mushtariy diologlarni nihoyatda jonli quradi. Bir xil ko'rinishga ega bo'lgan radiflar savol-javob egalarining nutqiga ko'ra, o'rin almashib asarga alohida ohang baxsh etadi





ITALY

SCIENCE AND INNOVATION IN THE EDUCATION SYSTEM

International scientific-online conference



ITALY

Dostondan o‘rin olgan murabba’, g‘azal, muxammaslar Saodat Mushtariyning yaxshigina lirik mahoratidan darak beradi. U xalq qo‘shiqlari uslubidan foydalanib she‘riyatda tilning soddaligi, obrazlarning aniqligi va yorqinligiga erishadi. To‘g‘ri, ayrim lirik asarlarning shakl xususiyatlarida ba‘zi nuqsonlar ko‘zga tashlanib turadi. “Malikayi Dilorom” dostonining qo‘lyozma va toshbosma nusxalarida misralar, ayrim so‘zlarda o‘zgargan, tuzatilgan o‘rinlarni uchratamiz. Shunga ko‘ra, dostonning shakl xususiyatidagi ayrim nuqsonlarni shoira nomi bilan bog‘lash ma‘qul emas, albatta. Dostonning umumiy ruhi Mushtariyning katta talant egasi ekanligidan dalolat beradi.

Saodat o‘zining g‘azallari, dostonlari va hikoyalari bilan o‘zbek adabiyotiga katta hissa qo‘shgan. Mushtariy asarlarida insonning ichki dunyosini, ruhiy holatini, shaxsiy qiyinchiliklarni va ijtimoiy masalalarni yoritib bergan. Shoiraning asarlarida psixologik tahlilning katta o‘rni bor. Uning asarlarida qahramonlarning ruhiy holati, ichki konfliktlari va o‘zgarishlari chuqur o‘rganilgan. U inson ruhining nozik qatlamlarini tasvirlashda katta mahoratga ega edi. O‘z asarlarida jamiyatdagi nohaqliklar, ijtimoiy tengsizlik, ayollar huquqlari va boshqa ijtimoiy masalalarni o‘rganish orqali keng ommaga ta‘sir ko‘rsatgan.

Uning ijod mahsullarida o‘z zamonining ijtimoiy va madaniy muammolariga e‘tibor qaratgan. Mushtariy ayol qahramonlar obrazini yaratishga jiddiy ahamiyat bergan. Uning asarlarida ayollarning hayoti, orzu-istaklari va kurashlari ko‘rsatilgan. Mushtariyning ayollar obrazlari — ko‘pincha kuchli, qat‘iyatli va ichki kurashga ega bo‘lgan shaxslar sifatida tasvirlangan. Shoiraning asarlarida sadoqat, sevgi, va shaxsiy yuksalish kabi mavzular markaziy o‘rinda turadi. Mushtariy, insonlarning his-tuyg‘ulari va ularning o‘zaro munosabatlarini o‘ziga xos tarzda tasvirlaydi.

Saodat o‘z asarlarida sodda va samimiy tilni ishlatgan, lekin shu bilan birga, u murakkab psixologik va ijtimoiy mavzularni yaxshi ifodalagan. Uning tili nozik, lekin ma‘nolarni chuqur yetkazish imkonini beradi. Saodat Mushtariy o‘zining asarlarida odamlarning ichki kurashlarini, orzularini va hayotdagi muammolarni ochib beradi.

Bundan tashqari, shoira o‘z asarlarida, ayniqsa, doston va g‘azallarida badiiy san‘atlardan unumli foydalangan. Tashbih, tazod, tanosub, ayniqsa, talmeh san‘atini juda ko‘p o‘rinlarda marom bilan ishlatadi.

Turli yillarga mansub o‘ndan ortiq qo‘lyozma hamda toshbosma nusxaga ega ma‘lum bir asarning matn tarixini o‘rganmasdan, uning badiiyati va til





ITALY

SCIENCE AND INNOVATION IN THE EDUCATION SYSTEM

International scientific-online conference



ITALY

xususiyati qanchalik chuqur o'rganilmasin, bu yakuniy ish hisoblanmaydi. Ko'p nusxali matn tarixini o'rganish esa asarning qo'lyozma, toshbosma nusxalarini hamda nashr variantlarini xilma-xil tasniflar orqali guruhlash, har tomonlama qiyoslash va saralashdan boshlanib, oxiri – aniq va ishonchli dalillar bilan boyitilgan ilmiy-tanqidiy matnni tayyorlash bilan yakunlanadi. Shundan so'nggina bu asar bo'yicha kelajakda olib boriladigan tadqiqotlar, xoh tilshunoslik, xoh adabiyotshunoslik yo'nalishida bo'lsin, qat'iy ravishda shu tayyor ilmiy-tanqidiy matn asosida olib borilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mushtariy. Malikayi Dilorom. Qo'lyozma. O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti. Asosiy fondi. Inv. № 9922.
2. Mushtariy. Qo'lyozma. Qo'qon adabiyot muzeyi. Asosiy fondi. Inv. № 858.
3. Qodirova M. XIX asr o'zbek shoirlari ijodida inson va xalq taqdiri.–Toshkent, O'zSSR.Fan, 1977.
4. www.Ziyo.uz.

